

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA SHAXSIY SIFATLARNI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY – PEDAGOGIK JIHATLARI****Allanazorov Muxiddin Xayitovich ¹**¹ *Axborot texnologiyalari va menejment universiteti**Pedagogika kafedrası mudiri*muhiddinijtimoiy@gmail.com**Safarova Charos Alisher qizi ¹**¹ *Axborot texnologiyalari va menejment universiteti magistranti**E-mail: ashurovacharos7@gmail.com**Tel: (95) 552 2172***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:17.02.2025**Revised: 18.02.2025**Accepted:19.02.2025***KALIT SO'ZLAR:***ta'lim, tarbiya,
pedagogika, ijtimoiy,
faol shaxs, mahorat,
bilim, individual,
psixologiya.*

Mazkur maqola Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishda ijtimoiy -pedagogikaning o'rni va ahamiyati haqida bayon etildi. Shuningdek Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy faol shaxs sifatlarini oshirish va rivojlantirish masalasi bo'yicha alohida to'xtalib o'tildi. Bugungi kunda Pedagoglar pedagogik mahoratidan kelib chiqqan holda o'quvchilarni ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishda turli xil yangi metodlardan foydalangan holda ijtimoiy faolligini oshirishi kerakligi dolzarb muammo qilib olindi.

KIRISH. Barchamizda ma'lumki, Mamlakatimizning yanada taraqqiy etishi, O'zbekistonning Jahon Hamjamiyatida yuksak o'rinlarni egallashida ijtimoiy faol shaxslarning shakllanib, ortib borishi nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Shu jumladan davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev O'zbekistonni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifasilari to'grisida to'xtalar ekanlar, mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlar samarasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tganlar. Bundan ko'rib turibdiki, Hozirgi kunda

Pedagoglarning oldida turgan dolzarb vazifalaridan biri bu o'quvchilarini jamiyatda o'z o'rniga ega faol shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashib, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarurdir".

Ma'lumki, o'quvchilar ilk bor maktab ostonasidan hatlab o'tar ekanlar ana usha kundan boshlab o'quvchilarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishdagi ilk qadam ham qo'yila boshlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qanchalik jamoaga birikib keta olishi, o'z o'rniga ega faol shaxs sifatida shakllanishi, jamoada o'z fikrini erkin bayon qila oladigan va kreativ fikrlay olishida pedagoglarning ilmiy salohiyatiga, mahoratiga bog'liq hisoblanadi. Jamiyatda o'quvchilarning ijtimoiy faol shaxs sifatida tanilishi o'z -o'zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyati, mahorati asosida zinama-zina shakllantirilib boriladi. O'quvchilarga nazariy va amaliy bilimlarni birdek berish, ularda ijtimoiy faol shaxs ko'nikmalarini va malakalarini hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Sharq allomalarimizning faoliyatiga nazar solar ekanmiz, juda ko'p hollarda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligiga guvohi bo'lamiz. Ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirish to'g'risida allomalarimiz o'zlarining asarlarida juda ko'p ilmiy fikrlarni bayon qilib o'tganlar. Abu Ali Ibn Sino "Axloq haqidagi risolasi"da ijtimoiy faol shaxs haqida gapirib, insondagi yaxshi va yomon xulqning hammasi ijtimoiy sharoit, tarbiya va adolat natijasida vujudga kelishini ta'kidlaydi. Yaxshi axloqli kishida insonning eng yaxshi fazilatlari mujassamlashganini aytadi. Shunday fazilatlar jumlasiga insonparvarlik, haqiqiy do'stlik, sadoqatlik, kelajakka ishonch bilan qarash, mehnatsevarlik, tadbirkorlik va shu kabilarni ko'rsatib, u kishilarni shunday fazilat egasi bo'lishiga chaqiradi.

Faroxat Mirzayevaning "Pedagogika nazariyasi va tarixi" o'quv qo'llanmasida ijtimoiy pedagogikaga shunday ta'rif berilgan: ijtimoiy pedagogika - shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy me'yordan og'ishishning pedagogik diagnostikasi, korrektsiyasi va rehabilitatsiyasi hamda ijtimoiy -pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalarini tadqiq etadi. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil

etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Ayni paytda bu muammo doirasida pedagogik, psixologik va turli nuqtai nazarlardan har xil yo'nalish va mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borgan zamondosh olimlarining ilmiy izlanishlari ham mazkur tadqiqotning dunyoga kelishiga turtki bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz. Darhaqiqat, T.Egamberdiyeva, Q.Q.Quranboev, M. Maxmudova kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida ijtimoiy faollik va shaxsni faollashtirish muammolari pedagogik va psixologik jihatdan ochib berilgan. Misol tariqasida M.Maxmudovanning ilmiy izlanishlarida Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni tarbiyalash masalalari asoslab beriladi.

Tadqiqotchi quyidagi shartlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirish jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun yetarli asos bo'la oladi degan xulosaga kelgan:

- kichik yoshdagi o'quvchilarning ijtimoiy faolligini yaxshilashda tarbiya jarayonining hal qiluvchi, yakunlovchi bosqichi sifatida tadqiq etish;

- 1-4 sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish mazmuni, shakllari va metodlarini aniqlash;

- kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish yo'llari hamda ishlab chiqilgan tizim samaradorligini o'rganish va ishonarli dalillar vositasida asoslab berish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalashda o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma ishlab chiqish;

Ijtimoiy-pedagogikaning vazifalari ijtimoiy hayotning aniq muammolarini hal qilish bilan bog'liq.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyatining vazifalaridan yana birlarini keltirib o'tamiz:

- O'quvchilarni jismoniy, ruhiy, axloqiy, ijtimoiy salomatligini saqlash, mustahkamlash uchun sharoit yaratish;

- O'quvchilarning hayotida axloqiy fazilatlarini, ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalishlarini, munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish;

- Mikrojamiatda qobiliyatlarini rivojlantirish, imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

- Ijtimoiy moslashuv jarayonini optimallashtirishga qaratilgan profilaktika, reabilitatsiya tadbirlari tizimini amalga oshirish.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Muammoga oid nazariy manbalar hamda uning amaliy holatini o'rganish natijalari mazkur sohada bir qator ziddiyatlarning mavjudligini ko'rsatadi.

-Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollik o'z-o'zidan yuzaga kelmasligi, balki doimiy ravishda olib boriladigan pedagogik faoliyat natijasida shakllantirish va bu jarayon tanqidiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqilmaganligi;

-O'quvchilarni psixologik xususiyatidan kelib chiqqan holda ijtimoiy faollashuvining bir qator o'ziga xos xususiyatlari va omillari mavjud bo'lib, ularni yetarlicha o'rganilmaganligi.

Bu vazifani samarali amalga oshirishda faol shaxs xususiyatlari va shartlarini tarkib toptiriladigan shakl, usul, metodlarni izlab topish, o'z navbatida ijtimoiy faollik tushunchalari mohiyatini tushunish, nazariy jihatdan ham amaliy jihatdan ham juda muhim hisoblanadi. Bundan oldin ijtimoiy pedagogika tushunchasining tub mohiyati va maqsadi haqida bilib olishimiz kerak.

Ijtimoiy pedagogika - bu bolalar va yoshlarning ijtimoiy rivojlanishiga, ularning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yordam beradigan pedagogik yondashuv desak adashmagan bo'lamiz. U shaxsning ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va jamiyatga moslashishga yordam berishga qaratilgan. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy maqsadi - o'quvchilarni ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli va etika qoidalariga amal qiluvchi shaxslar sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

O'quvchilarni ijtimoiy faolligini oshirishda o'quvchilarning ma'lum bir jihatlariga e'tibor qaratgan holda quyidagi metodlardan foydalanish ularga ancha yaxshi samara beradi degan umiddaman.

Ijtimoiy o'qitish metodi: O'quvchilarga milliy ruhda tarbiya berish, ijtimoiy qadriyatlarimiz, milliyligimiz haqida tushuncha berish, axloqiy normativlarni o'rgatish, o'zaro hurmat va tenglikni o'rgatish.

Shaxsiy va ijtimoiy rivojlantirish metodi: Yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish, jamoada o'z fikrini erkin ifoda etishga o'rgatish, guruhda ishlash va mas'uliyatni his qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Muloqot va hamkorlik: Bolalarga to'g'ri muloqot qilishni, jamoada ishlashni, bir-biriga yordam berishni o'rgatish.

Ijtimoiy yordam va maslahat: Ijtimoiy muammolar bilan yuzlashgan bolalarga yordam berish, ularga psixologik va pedagogik yordam ko'rsatish.

Ijtimoiy pedagogika, shuningdek, maktab va jamiyat o'rtasidagi aloqani rivojlantirishga yordam beradi, bu o'quvchilarga ijtimoiy mas'uliyatni tushunishga, jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Bu soha o'qituvchilar, ijtimoiy ishchilar va boshqa pedagogik mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy-pedagogikaning ahamiyati juda katta. Ijtimoiy-pedagogika o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ular orasida o'zaro hurmat, yordam, tenglik va hamjihatlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar orqali, bolalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytirish mumkin.

Buning bir necha asosiy jihatlari mavjud:

Ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish: Ijtimoiy-pedagogika orqali o'quvchilarga ijtimoiy muhitda to'g'ri xulq-atvor, yordam berish va o'zaro hamkorlik qilishni o'rgatish mumkin.

Jamoaviy ish va hamkorlik: Ijtimoiy-pedagogik metodlar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoada ishlashni o'rganadilar, bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshiradi va bir-biriga yordam berishni o'rgatadi.

Shaxsiy rivojlanish: Pedagogik yondashuvlar bolalarni o'zini ifoda etishga, o'z fikrini bildirishga, o'z hissiyotlari va ehtiyojlarini tushunishga yordam beradi, bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish: Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni ijtimoiy faol bo'lishga undaydigan faoliyatlar, masalan, guruh ishlarini tashkil etish, muntazam va samarali muloqot o'rnatish imkonini yaratadi.

Shuningdek, ijtimoiy-pedagogik yondashuv bolalarni ongli fuqarolar sifatida tarbiyalash, ularda ijtimoiy muammolarni tushunishga qiziqish uyg'otadi va jamiyatga faol a'zo bo'lishga tayyorlaydi. Bu jarayon o'z navbatida, yoshlarni jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy qatlamlarigajuda katta ta'sir o'tkazadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations).

Xulosa qilib aytganda, Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kelajakda o'z o'rniga ega ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishda o'qituvchining oldida turgan talablar anchagina sezilarli desak adashmagan bo'lamiz. Bunda pedagog faqatgina o'quvchilariga ta'lim berishdan cheklanib qolmagan holda kasbiy bilimi, mahoratidan kelib chiqqan holda o'quvchilarga tarbiyaviy va ijtimoiy faolligini oshirishni birdek olib borishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Farmoni, <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. Rahimov S. Abu Ali Ibn Sino. Ta'lim va tarbiya haqida. -Toshkent, O'qituvchi, 2022. 7-bet.
3. Mirzayeva F. Pedagogika nazariyasi va tarixi. –Toshkent, Bayoz, 2021. 27-149- betlar
4. Tursunova N. Yoshlarning ijtimoiy faolligi: tushuncha va fazilatlar. Ijtimoiy fikr, 2004. Son 1.149-150- betlar.
5. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti ,Toshkent -2017.
6. Samarova S. R. (2019). Methods and technologies for the development of creative thinking of pupils. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.
7. Алланазаров, М. Х., & Тураева, С. Х. (2016). Философская теология: религия и философия сотрудничают ли друг с другом?. Молодой ученый, (6), 955-957.
8. Allanazarov, M. K., & Mamasaliev, M. M. (2020). ANALYSIS OF COMPREHENSION METHODS IN THE GNOSEOLOGY OF ALLAME TABATABAI. In ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 106-109).
9. Allanazarov, M. K. (2023). TABOTABOIY QARASHLARIDA DIALEKTIK MATERIALIZM TAHLILI. SCHOLAR, 1(15), 159-165.
10. Алланазаров, М. Х. (2023, June). ТАБОТАБОИЙ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСИ ТАШНИФИ. In Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference (pp. 58-66).
11. ALLANAZAROV, M. THE WAY OF SCIENCE. THE WAY OF SCIENCE Учредители: Издательство Научное обозрение, (10), 46-48.
12. Allanazarov, M. K. (2023). TABOTABOIY QARASHLARIDA DIALEKTIK MATERIALIZM TAHLILI. SCHOLAR, 1(15), 159-165.
13. Khaitovich, A. M. (2023). Ontological and Epistemological Views of Tabatabai. Miasto Przyszłości, 36, 77-83.
14. Allanazarov, M. K. (2019). THE ROLE OF EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHY IN POINT OF VIEW ALLAME TABATABAI. Theoretical & Applied Science, (9), 147-150.